ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

successfully incorporated folklore samples into the genre of personal memoirs, enriching the artistic possibilities of Uzbek prose.

Key words. "Boburnoma", Uzbek folk proverbs, Persian-Tajik proverbs in "Boburnoma", proverbs in the work and events associated with it.

References

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: P.Shamsiev. –Toshkent: Yulduzcha, 1989.

Мирзаев Т. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: "Mumtoz so'z", 2010

Саримсоқов Б., Мақоллар / Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. – Т.: Фан, 1988.

Ўзбек халқ мақолари. – Т.: Фан, 1978.

Саъдий Абдурахмон. Чиғатой ва ўзбек адабиёти ва шоирлари.- // Инқилоб, 1923.

Содиқов Қ. XI–XIV асруйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент: 1992. –230 б.

Мирзоҳидова Л. Б. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадийяти. Филология фанлари б фалсафа доктори (PhD) дисс автореф. – Самарқанд: 2018. – Б. 8.

Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент: 2006.

Умуров Ҳ. Адабиётшуносликка кириш.– Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.

USMON AZIM IJODIDA FOLKLOR NAMUNALARI VA XALQONA OHANG

Dilorom To‘rayeva[1]

Abstrakt

Ushbu maqola Usmon Azim ijodida folklor va xalqona an’analarni o‘ziga xos tarzda qo‘llagan shoirlardan biri sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxs she’riyati haqida bo‘lib, uning she’riyati o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, masallar, ertaklar, dostonlar va maqollar kabi folklor namunalariga boy bo‘lib, bu unsurlar uning asarlarida milliy ruh va xalq donishmandligini aks ettiradi. Usmon Azim she’rlarida xalqona obrazlar, ramziy tasvirlar va an’anaviy motivlar orqali o‘zbek xalqining ma’naviy olami, urf-odatlar va qadimiy e’tiqodlarni zamonaviy she’riy til bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bilan birga, uning ijodida xalqona namunalar nafaqat an’ana sifatida, balki zamonaviy hayot va inson ruhiyatini talqin qilish vositasi sifatida ham ishlatiladi. Bu annotatsiya Usmon Azimning folklor va xalqona an’analarni o‘ziga xos talqin qilish uslubini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, uning ijodiy merosining o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini yoritadi.

Kalit so‘zlar. Folklor, poetika, soz, xalq, ijod, ritorika, doston, rivoyat.

Kirish

So‘z san’ati bo‘lmish adabiyot azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi. Ayniqsa, zamonamizning serqirra ijodkorlaridan biri nazm, nasr, publitsistika va dramaturgiyada ham o‘ziga xos uslubga ega O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimov ana shunday zabardast qalam sohiblaridan biridir. Shoirning ijodiy salohiyati, o‘ziga xos poetik tafakkuri, uning istiqlol davri o‘zbekadabiyotidagi e’tiborli mavqeyi keng o‘rganishga loyiq jihatlardan hisoblanadi. Xalqimizning sevimli shoiri Usmon Azim o‘z sozi va ovoziga ega chin so‘zni baralla ayta oladigan e’tiqodli

[1] *Dilorom To‘rayeva* – Toshkent shahri Chilonzor tumani 101-maktab o‘qituvchisi
E-mail. diloromtureva@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0003-8062-1666
Iqtibos uchun. *To‘rayeva D.* 2025. “*Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang”* O‘zbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 189-197. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/CJLZ8025

ijodkorlar sirasiga kiradi.

Shoir ilk ijodidan boshlab zamondoshlarini sergak va ogoh bo‘lishga da’vat, o‘zlikni anglash,o‘z qadr-qimmatini yuqori tutish, inson degan muqaddas nomga mos bo‘lish kabi mavzularda she’rlar bitgan. Shu sabab bo‘lsa kerak, 1978-yilda e’lon qilgan dastlabki she’riy to‘plamini ham “Insonni tushunish”[Усмон Азим, 1978;5] deb nomlagan. Bu bejiz emas, albatta. Bu kitobni qo‘lga olarkanmiz, muallifga va uning mazkur kitobiga quyidagicha nashriy ta’rif berilganiga guvoh bo‘lamiz: “*Surxondaryolik yosh shoir Usmon Azimov o‘z she’rlarida zamon va inson, sevgi murakkabliklarini o‘ziga xos bo‘yoqlar va ohanglarda ifodalashga intiladi.Yosh shoir:*

Qalbingizga daryo bo‘lib kiraman bir kun,

She’r yurtidan sado bo‘lib kiraman bir kun,

– deydi. Shoirning ilk to‘plami o‘quvchiga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz[Усмон Азим, 1978;3]*”.*

Ijodining dastlabki yillarida adabiyot olamida murakkab va ziddiyatli bir davr edi. Bu vaqtda o‘zbek she’riyati Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlar hisobiga ham shaklan, ham mazmunan o‘zgarish yo‘liga kirib kelayotgan bir davr edi.

Usmon Azimning XX asr o‘zbek adabiyotining eng yorqin iste’dodlaridan biri ekanligi ayon bo‘ldi. 2001-yilda nashr etilgan “Kuz” she’riy kitobi esa she’riyatimizda alohida bir yuksaklik deb baholandi. Shoir she’rlarida bog‘, tog‘, quyosh, tong, yomg‘ir, shamol, yulduz, qushlar, gullar, yil fasllari, ayniqsa, Kuz timsollari keng qo‘llaniladi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misralarga e’tibor qarataylik:

Sarg‘aydi bahorda tug‘ilgan yaproq,Yo‘l yurib vaqt kelib tig‘ida anhor.

*Kuz yo‘q.O‘rindiqda chorbog‘da bu Mung‘ayib o‘tirar qarigan bahor [*Усмон Азим, 2001;59].

Usmon Azim ijodi bepoyon Boysunday keng, Boysun kishilariday istarasi issiq, so‘zi dilga yaqin, yuraklarni ilituvchi ijod namunasidir. Shoir o‘zi ta’kidlaganidek, “Boysunday xudo bergan chiroyli bir maskanda tug‘ilganimdanmi, tabiatni yurakdan o‘tkazib yaxshi ko‘rish menga nasib etdi. Ammo, tabiatning tasviri she’rimga aniq ko‘chgunicha she’riyatda ancha yo‘lni bosib o‘tdim. Ortimga burilib qaramay, yuragim yorilguday bo‘lib she’r yo‘lidan ketaverdim. “Tazarru bog‘lari”deb atalgan she’riy turkumlar majmuasiga yetganimda esa shu paytgacha kuylaganim she’riyatga yetib kelganimni his qilganman[Усмон Азим, 2019;14]”. Mana haqiqiy shoir tajribasi. U tabiat shaydosi, go‘zallik asiri. Insoniylikning eng yuksak cho‘qqisi– kamtarlikda badiiy kamolotga yetgan iste’dod egasi. Vaholanki, “Tazarru bog‘lari”ga yetguncha ham ijodkorning eng sara to‘plamlari chop etilgan edi. Ilk to‘plami “Insonni tushunish”dan boshlab maydonga kelgan yigirmadan ziyod kitoblari shoirni chin she’riyat olamiga olib kirib, o‘zbek she’riyati maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun asos bo‘lgan edi. Lekin she’riyat yo‘lida uning nazariy asoslar-

idan tortib buyuk ustoz shoirlar ijodini to‘laqonli o‘rganib borgan ijodkor shaxsiga xos kamtarlik bilan “she’riyatga yetib kelganimni his qildim”deya mubolag‘a qiladi.

Shoirning “Baxshiyona” kitobchasi 1990-yillardayoq shoirga juda katta shuhrat keltirgan edi. Bu haqda Karomat Mullaxo‘jayeva “O‘zbek she’riyatiga mutlaqo yangi bir ohang – baxshilar ohangini, baxshiyonani birinchi bo‘lib Usmon Azim olib kirdi. Uning qo‘shiqqa aylangan “Karvon ko‘rdim tuyalari bo‘zlab borar, Nortuyada mening yorim muzlab borar” misralari bilan boshlanuvchi baxshiyona she’ri el orasida juda tez mashhur bo‘lib ketdi. Bugun ham uning shuhrati pasaymagan. Zamonaviy she’riyatda qadimiy ohanglarni bu asnoda qo‘llash shoir Usmon Azim ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan muhim adabiy hodisa” sanaladi[Aliqulova 2024;25].

U yaratgan o‘nlab to‘plamlarga kirgan she’rlar, dostonlar yorqin tuyg‘ularga, ifodalarga boyligi, jo‘shqin va jozibadorligi, shiddat-korva da’vatkorligi, goh g‘amgin, goh beg‘ubor erkalovchi ohanglari bilan kitobxon qalbidan chuqur joy oladi. Usmon Azim poeziyadan tashqari proza, drama, publitsistika va badiiy tarjima sohasida hamijod qilib ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritgani ham xarakterlidir. Usmon Azimov qanday mavzuda yozmasin, ularda faqat shoirning o‘ziga xos uslubi sezilib turadi. Mazkur mashhur shaxslarga bag‘ish-langan asarlar adabiyotimizda kam emas, biroq Usmon Azimov ular haqida yangicha talqin bilan gap aytishga intiladi. She’rlarida o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysun tabiati, kishilarning mehnatsevarligi, o‘zaro samimiy aloqalar, o‘zbekona ruh yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoirning lirik qahramonlari ham haqiqat uchun kurashadigan, nohaqlik, qalbakilik oldida kerak bo‘lsa jonini ham ayamaydigan sofdil, jasur insonlardir. Bu fazilatlar shoirning barcha asarlari uchun – she’r, doston, dramalariuchun xos fazilatdir.

Usmon Azim ijodida xalqonalik, falsafiylik vaintellektuallik bir maromda, bir o‘zanda olib kelayotgandek tasavvur uyg‘otadi. She’ri-yatidagi mazmun mundarijaga e’tibor qaratilsa: hayot, o‘lim, ona, tabiat kabi abadiy mavzularga asoslanganligi va bu asoslanganlik o‘z maqomi va darajasida ifoda etilishi bilan she’rxon qalbidan joy olgan-ligini alohida ta’kidlash mumkin. Biroq shoirning mazmun mundari-jasida yana bitta mavzu alohida mavqega egadir. Bu – sog‘inch.

Ey, mening munisginam,
Mehribonim, opajon
Baland tog‘lar bag‘rida
Bormisan, sog‘u omon?
Kecha xatingni olib,
Ko‘ksimga tushdi g‘ulu…
“Usmon juda sog‘indim,
Sen meni unutding-ku…”

Shoirning “Boychechak” she’ri bag‘ishlov janri asosiga quril-gan bo‘lib, unda lirik qahramon (shoirning o‘zi) va personaj (Saida

opa (ikkinchi shaxs tilidan ifoda etilgan nutq jarayoni) ruhiyatidagi chizgilar alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodida sog‘inch mavzusining qatlamlari yoki bo‘yoqdorligi jihatidan muhim. Ushbu sog‘inch parchasi opa va uka o‘rtasidagi mehr-oqibat tushunchalari bilan bog‘lash va ularning munosabatidagi iliqlik aynan shu motiv asosida amalga oshirganligi hamda bu munosabat inson ko‘ngil qa’tidagi hislarni uyg‘otuvchi hilqatdek, ruhiyatini o‘ziga torta olish qudratiga ega. Demak, ijtimoiy voqelikka asoslangan assosiativ tuyg‘ularning bir ko‘rinishi bo‘lib yuzaga chiqqan ushbu she’rni avtobiografik xarakterning yorqin namunasi sifatida anglash o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ayniqsa, “Sen meni unutding- ku…” misrasi hech bir she’rxonni befarq qoldirmaydi. Qalbini titratib, ruhiyatini larzaga soladi. Shoirning so‘z qo‘llash mahorati ham ana shunisi bilan muhim. Usmon Azim tuyg‘uni borligicha beradi. Tuyg‘uo‘quvchi borlig‘iga ko‘chib o‘tadi. Qarshisidagi tirik jondek uni ham qiynaydi. Shoirning talaygina she’rlarida shunday xususiyat tasviriga duch kelish mumkin:

Boysun qirlarida bir o‘zim kezdim,
Kuz edi.
Daralar tumanni quchgan.
Avval eshitgandim.
U mahal sezdim,
Mening bir do‘stimning chirog‘i o‘chgan.
Do‘stim, qay qo‘shiqni aytmoqchi edik?
Savolim tinglar-u, seskanmas zamin…
Men kuylay boshladim nogoh turib tik,
O‘zimning dardim-u do‘stimning g‘amin.

Ushbu she’r ham biografik xususiyatni o‘zida ifodalay olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning bu she’rida sog‘inch so‘zijaranglamasa-da, biroq sog‘inch o‘kinch orqali o‘z maqomiga erisha olgandir. Darhaqiqat, Usmon Azimdagi o‘ziga xos xususiyat ham ruhiyatdagi turli-tuman hislarni birlashtira olishida kuzatiladi. Biz lirik qahramon ruhiyatini Boysun adirlaridek kenglikda kuzatamiz. Unda o‘ziga xos tarovat bilan bir qatorda, ruhiyat iqlimlaridagi harorat ham seziladi. Bu harorat do‘stini yo‘qotishda aks etiladi. Ayniqsa, “Savolim tinglar-u, seskanmas zamin…” misrasidagi sog‘inch hilqatini anglash zamirida his etilishi lozim bo‘lgan tuyg‘u bor bo‘yicha o‘quvchiga qaqshatqich zarbasini beradi. His etilgan jarayon esa, qachonlardir qadrdon bo‘lgan inson bu dunyoni tark etishi va armonga aylangan orzularning og‘ushida qolgan lirik qahramonning qalb o‘kinchlari sarhadlari tasvirini jonlantirishda yordamga keladi. Shoir sog‘inch motivini berishdagi o‘ziga xos yo‘lining yana bir ko‘rinishi personajlarni almashtirish kuzatiladi. Ushbu fikrimizga yana bir misol:

Mast-u alast, beg‘am do‘st-u yor,
Toliqtirar qalbimni manim.

Shunda birdan bo‘ladi oshkor,
Yolg‘izlardan yolg‘iz ekanim.
Derazaga hul bag‘rin bosib,
Kuzak tuni surganda xayol –
Men eng go‘zal she’rimni yozib,
Sizni eslab yig‘lashim ayon.

Shoirning “Onamga maktub” she’ri ham sog‘inchning bir ko‘rinishi sifatida tasvirlangan. Ushbu she’rda ham sog‘inch so‘zi ishlatilmasa- da, biroq undagi hislar bizga sog‘inchni tuydiraveradi. Ko‘nglimizga qo‘ndiraveradi. Xayollarimizni va tinchimizni o‘g‘irlayveradi. Ona oldidagi burch va majburiyatni esa xotiraga solaveradi. Yuqorida ta’kid etganimizdek, shoirning ko‘pgina she’ri avtobiografik xususiyatga ega. Shu bois undagi makon tasviri u darajada o‘zgarmaydi. Makon Boysun va uning qirlari bo‘lib qolaveradi.

Shoir shu yo‘lni tanlar ekan, muhabbat mavzusidagi sog‘inchning tafti issiqlikda ekanligini o‘quvchining yodiga soladi. Shu bois ham lirik qahramon yuragini kaftiga olib“Qiblanamom, yo‘l ko‘rsat menga!” deya ritorik murojaat etadi. She’rni o‘qish jarayoniga tuyg‘uning faqat bir tomonini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Ya’ni tuyg‘u faqat lirik qahramon bilan bog‘lanadi. Undagi vaziyat ham uning ko‘zi orqali kuzatiladi. Muhabbat mavzusidagi ko‘pgina she’rida shunday sog‘inch kuzatiladi. Shoirningquyidagi she’ri ham fikrimizni yorqin misolidir:

Sevgilim! O‘ylanma, kel, intizorman, Kelgin, g‘ussang bilan to‘lgan uyimga. Hali ham sevgingga sodiqman, yorman, Shodlik bo‘lib qo‘shil g‘amgin kuyimga.

Sen jonim, xonamda bo‘lganda paydo,
Sovuqdan qizargan yuzlaring yashnab,
Rostdan ham senmi deb, xayolmi, deb yo,
Ishonmay qo‘lingni ko‘rurman ushlab,
Ammo, sen kelmaysan, yo‘qotgan she’rim,
Hamon turibdirsan ostonada tik.
Kutasan: “Qaytgin”, deb aytadi ering,
Yana ochiladi yopilgan eshik.

She’r voqeabandlikka asoslangan. Unda xayol og‘ushidagi lirik qahramonning ong osti qatlamlaridagi tasavvurlarni kuzatamiz. Voqelikning barchasi ong osti iqlimlarida yuz beradi. Ijtimoiyvoqelikdagi bir oilaning tasviri ham, ularning janjallari ham, yorning uydan chiqib ketishi-yu, ostonada tik turib qolishi ham barchasi ong osti tasavvurlari bilan tasvirlanadi. Asl haqiqat esa sog‘inchning sarg‘ish siniqlari ostida yuzaga kelishida seziladi. Ha, aynan siniqlari asosiga quriladi. Lirik qahramonning barcha o‘ylari va tassavvurlari shu asosga quriladi. Unda bo‘lib o‘tgan voqelik aslida bo‘lmagan kabi tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Chunki shoirning “yo‘qotgan she’ri” bo‘lib taralgan bu tuyg‘u bir tomonlama bo‘lishi ham mumkin. Shu bois lirik qahramon nigohidagi bu voqelik uning xayollari mah-

sulidir. Shoir bu usuldan ham unumli foydalanadi va sog‘inchni yana birrakursini o‘z o‘quvchisiga taqdim etadi.

Usmon Azim she’riyatidagi sog‘inch o‘z iqlimlariga, o‘z tuyg‘ulariga, o‘z tarovatu ko‘rinishlariga egadir. Bu esa sog‘inchning sarg‘ish siniqlari bo‘lib yuzaga chiqqan.

Usmon Azim “Surat parchasi haqida doston” she’rida “Har bitta satrimga Haqiqat, Vijdon, Ishq, Dunyo, Vatanning ko‘zila boqdim…”deb yozadi. Shoirning lirik qahramoni ana shu tuyg‘ular muhabbatini yuragiga jo qilib yashaydi. U shunchaki yashashni, ijod qilishni xohlamaydi. She’riyat shoir uchun mangu qiynoq. Ammo, qiynoqsiz u hayotini tasavvur etolmaydi. Shu boisdan qiynoq – sharaf.

Hali butun ro‘yi jahon she’r bo‘lajak,
Faqat bekor bilib orom quchog‘ini.
Bu dunyoni sirga ko‘mib yashash kerak,
Qalbga sanchib she’riyatning pichog‘ini.

Shoir hozirga qadar she’riyatning pichog‘ini yurakka sanchib ijod qilmoqda. Ijodkor she’riyatining bosh timsoli – Haqiqat. Uning ko‘ngil ka’basi, sig‘ingani – Haqiqat. U tabiat va jamiyat hodisalariga haqiqat ko‘zi bilan qaraydi. Haqiqat doimo shoir qalbining to‘rida yashaydi.

Birov maydaladi seni, haqiqat,
Qalbida tugabmi kurashning qo‘ri.
Ko‘zingdan o‘rgilay, o‘tgin, marhamat,
Haqiqat, sengadir ko‘ksimning to‘ri…

Ayniqsa, totalitar tuzum davrida Millat va Vatan haqiqatlarini yozish uchun shoir turli badiiy vositalardan mahorat bilan foydalandi. Xususan, folklor motivlariga murojaat etdi. Goh Elbek baxshi, goh Alpomish, goh ertak qahramonlari tilidan kuylab, o‘z davrining jarohatli nuqtalarini qalamga oldi. Bu haqida shoir Mirzo Kenjabek shunday yozadi: “Usmon Azim shiddatli tuyg‘ulari bilan, keskin holatlar va aniq tasvirlari bilan o‘zbek she’riyatiga yangicha ruh olib kirdi. Xalqning pajmurda jasadiga ruh kirituvchi xilqat – rost so‘z ekanini Elbek baxshi bo‘lib bunday ifodalaydi:

Haq gap uchun har bir gapga ko‘nadi el,
To‘g‘ri so‘zdan ko‘payadi, to‘ladi el.
Dordan ko‘rqib yolg‘on aytib turganim yo‘q,
Shoirlari yolg‘on aytsa, o‘ladi el…”

XX asr 70-yillar avlodi o‘zbek she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shgan sirqirra ijodkor O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she’riyati betakror poetik obrazlarga boyligi va ifodaviylikdagi o‘ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shoir she’rlaridagi badiiy jozibaning siri ham uning poetik vositalardan unumli foydalanishida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azimning yuksak iste’dodi, un-

ing so‘z qo‘llash mahorati va she’riy san’at voistalaridan unumli foydalanishida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma’noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev adabiyot ahliga, ijod ahliga – barcha ziyolilarga har tomonlama yordam ko‘rsatish, ijod erkinligini ta’minlash, badiiy adabiyotlar nashrini ko‘paytirish borasida tinmay g‘amxo‘rlik qilib kelmoqda, ijod ahliga hurmat-ehtirom bajo qilinmoqda. Milliy adabiyotimizning ertangi kuni, uning kelajakdagi rivoji ma’naviyat sohasidagi ustuvor vazifa ekanini, o‘zligimizni anglash, insoniy qadrimizni, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz avliyo va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini o‘rganish, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib berganini alohida ta’kidlash zarurdir.

Ma’lumki, o‘zbek she’riyatiga ko‘plab novatorlikka qo‘l urgan shoir ijodiga jahon she’riyatining ta’siri katta. “Alisher Navoiydan tortib Qodir baxshigacha, Homerdan tortib, deylik, zamonaviy g‘arb yozuvchilarigacha, turk shoirlaridan tortib mumtoz yaponu xitoy she’riyatigacha, rus adabiyotidan Amerika qit’asi adabiyotigacha[Усмон Азим, 1995;382]” o‘qib o‘rgangan shoir jahon adabiyotiga yuksak mehr qo‘yishi bilan birga o‘zbek kitobxoniga ana shu boy adabiyot namunalarini taqdim etdi.

Agar shoir she’riyatining manbalari grafigini chizsak: unda eng birinchi +chiziqda Boysun – xalq og‘zaki ijodi – “Alpomish” dostoni turadi. Adabiy suhbatlarning birida shoir bu haqida shunday degandi: “...Alpomishning qoni tomirimda gupirib turganini har lahza his qilib turaman. O‘zish uchun, hayotga tik qarash uchun Alpomish bo‘lish kerakligini ham aniq bilaman. Haqiqiy Adabiyotni faqat va faqat mard, halol odamlar yaratadi deb o‘ylayman. Faqat Adabiyotni emas, hayotning hamma jabhasida Alpomish kerakligini tuyaman… [Усмон Азим, 1995;382]”

Shoirning “Baxshiyona” turkumi nafaqat xalq og‘zaki ijodi, xalqimiz o‘tmishidagi qissaxonlik kechalarini, o‘ziga xos an’analarini ko‘rsatuvchi durdona asardir. Lirik qahramon Elbek baxshidek otashqalb, haqsevar, chin so‘zli qo‘rqmas baxshilar tilida Vatan madhi, el-u yurt dardi, Haqiqat va adolat tantanasi har bir avlodga O‘zlikni, o‘zbekligini tanish uchun juda zarur!

Adabiyotlar

Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Халқ сўзи.// 2016 йил 16 декабр. № 135 (6925).

Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent, 2017. B. 71.
Азимов У. Инсонни тушуниш. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. Б. 5.
Азимов У. Инсонни тушуниш. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. Б. 3.
Usmon Azim. Kuz. –Toshkent, 2001. – B. 59.
Usmon Azim. Ko‘ngil. – Toshkent, 2019. – B. 14.
Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent, 1995. B. 382.
Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent, 1995. B. 382.
Aliqulova H. O‘zbek va qozoq yor-yorlarining qiyosiy tipologik tahlili. Diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 56 b.

FOLKLORE EXAMPLES AND FOLK MELODİES İN THE WORK OF OSMAN AZİM

Dilorom Turaeva[1]

Abstract

This article is about the poetry of Usman Azim, who has taken his place as one of the poets who used folklore and folk traditions in his own way. His poetry is rich in folklore samples such as Uzbek folk oral literature, parables, fairy tales, epics and proverbs, which reflect the national spirit and folk wisdom in his works. In his poems, Usman Azim combines the spiritual world of the Uzbek people, customs and ancient beliefs with modern poetic language through folk images, symbolic images and traditional motifs. At the same time, folk samples are used in his work not only as a tradition, but also as a means of interpreting modern life and the human psyche. This annotation is aimed at analyzing Usman Azim’s unique style of interpreting folklore and folk traditions, and highlights the place of his creative heritage in Uzbek literature.

Key words. Folklore, poetics, word, people, creativity, rhetoric, epic, narrative.

References

[1]*Dilorom Turayeva – teacher, Chilonzor district of Tashkent city*
E-mail. diloromtureva@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0003-8062-1666
For citation: *To‘rayeva D.* 2025. “*Folklore examples and folk melodies in the work of Osman Azim*” Uzbekistan: Language and Culture. Folklore. Dialectology 2. 189-197. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/CJLZ8025

Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Халқ сўзи.// 2016 йил 16 декабр. – № 135 (6925).

Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent, 2017. B. 71.

Азимов У. Инсонни тушуниш. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 5.

Азимов У. Инсонни тушуниш. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 3.

Usmon Azim. Kuz. – Toshkent, 2001. – B. 59.

Usmon Azim. Ko‘ngil. – Toshkent, 2019. – B. 14.

Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent, 1995. – B. 382.

Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent, 1995. – B. 382.

Aliqulova H. O‘zbek va qozoq yor-yorlarining qiyosiy tipologik tahlili. Diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 56 b.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com